

# Fanlar akademiyasi prezidenti Moskva muhandislik-fizika instituti Toshkent filiali talabalari bilan uchrashdi

Milliy yadro tadqiqotlar universitetining Moskva muhandislik-fizika instituti Toshkent filiali talabalarini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti faoliyati va u yerda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishtirib borish Filial ta'lim dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu dastur talabalarda ilmiy ish olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga va ilm-fanga qiziqtirishga qaratilgan. Unga ko'ra, FA Yadro fizikasi institutining yetakchi olimlari bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib borish ko'zda tutilgan.

Filialda mazkur dastur doirasida O'zR FA prezidenti, akademik B.S.Yuldashev bilan uchrashuv tashkil etildi.



Uchrashuvda akademik B.S.Yuldashev o'z ma'rurasini olamning paydo bo'lishi va materiyaning rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishladi hamda katta portlash sodir bo'lgan ondan to hozirgi zamon sivilizatsiya davrigacha bo'lgan oraliq tarixini batafsil va ilmiy asoslangan faktlar bilan gapirib berdi. Akademik B.S.Yuldashev yadro energetikasi va boshqa hozirgi zamon ilm-fani hamda texnikasining muhim muammolariga qaratilgan bu kabi uchrashuvlar muntazam tashkil etib borilishini, ularda dolzarb muammolar yechimi va ularning istiqboli muhokama qilinishini ta'kidladi.

Talabalar qizg'in savol va javoblarga boy bo'lgan uchrashuvda Yadro fizikasi institutida olinayotgan radioizotoplar, ularning xalq xo'jaligida ishlatalishi, ajratib olish usullari, yangi izotoplarni olishda yadroviy tahlil va radiatsion kimyo usullarining mohiyati to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



Bu kabi uchrashuvlar talabalar bilimlarini yanada boyitishda va ularni ilm-fanga qiziqishlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalarning yetakchi olimlar bilan uchrashuvlari bundan keyin ham davom etadi.